

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligining
2023 yil "14" mart dagi
13-son buyrug'iga ilova

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining
Sifat sohasidagi siyosati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining (keyingi o'rinlarda – Statistika agentligi) Sifat sohasidagi siyosati O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, Statistika agentligi tizimida rasmiy statistikaning sifatini ta'minlash va baholash ishlarini boshqarishga qaratilgan.

2. Statistika agentligi – rasmiy statistika sohasida davlat siyosatini amalga oshiruvchi, rasmiy statistikani rivojlantirish masalalari bo'yicha faoliyatni milliy statistika tizimi doirasida muvofiqlashtiruvchi vakolatli davlat organi hisoblanadi.

Statistika faoliyatini amalga oshirishda kasbiy mustaqillik O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solinadi.

3. Statistika agentligining asosiy missiyasi – foydalanuvchilarning yuqori sifatli rasmiy statistika ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish maqsadida rasmiy statistika sohasida davlat siyosatini amalga oshirish hisoblanadi.

Sifat kafolatini ta'minlash uchun rasmiy statistika rasmiy statistikaning qamrovi, tushunchalari, statistik birliklari va tasniflariga taalluqli umumiy prinsiplar hamda usullar asosida tayyorlanadi va tarqatiladi.

4. Statistika faoliyati rasmiy statistika ma'lumotlari va statistik jarayonlar sifatini doimiy ravishda oshirib borishga qaratilgan.

Rasmiy statistikani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish va foydalanuvchilar ehtiyojlarini qondirish uchun Statistika agentligi dolzarb va ishonchli rasmiy statistika ma'lumotlarini tayyorlaydi va tarqatadi. Bunga foydalanuvchilarning joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini o'rganish, zamonaviy raqamli texnologiyalarini qo'llash, statistika uslubiyatlarini va xalqaro tavsiyalarga muvofiq bo'lgan statistika kuzatuvlari shakllarini joriy etish orqali erishiladi.

5. Statistika agentligi rahbariyati tizimdagi barcha xodimlarning:

- lozim darajadagi kasbiy bilim va tajribaga ega bo'lishlari, shuningdek, o'zlarining kasbiy layoqati va shaxsiy fazilatlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishlariga;

- rasmiy statistikadan foydalanuvchilarning joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini qondirishning hamda qonunchilik va me'yoriy hujjatlar talablarini bajarishning muhimligini chuqur anglashlariga;

- yuklatilgan vazifalarni sifatli bajarish uchun zarur resurslar bilan ta'minlanishlariga intiladi.

6. Statistika agentligi respondentlarning qonuniy huquqlarini hurmat qilib:

- olingan birlamchi statistika ma'lumotlarining maxfiyligini ta'minlaydi;
- statistik instrumentariylarni takomillashtirish va ma'muriy manbalar ma'lumotlaridan foydalanishni kengaytirish orqali respondentlarga hisobot yuklamasini kamaytiradi;
- olingan birlamchi statistika ma'lumotlaridan faqat rasmiy statistika ma'lumotlarini tayyorlash uchun foydalanadi.

7. Foydalanuvchilarning rasmiy statistika ma'lumotlariga bo'lgan ishonchini oshirishning muhimligi va ustuvorligini hamda statistika faoliyatining xalqaro sifatni boshqarish tizimlariga mos kelishi zarurligini anglagan holda, Statistika agentligi o'z faoliyatini rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari va sifatni ta'minlashning quyidagi milliy asosiy prinsiplari asosida amalga oshiradi:

1) statistika tizimini boshqarish:

- milliy statistika tizimini muvofiqlashtirish;
- foydalanuvchilar va ma'lumotlar yetkazib beruvchilar bilan munosabatlarni boshqarish;
- statistik standartlarni boshqarish.

2) institutsional muhitni boshqarish:

- kasbiy mustaqillikni ta'minlash;
- beg'arazlik va xolislikni ta'minlash;
- shaffoflikni ta'minlash;
- birlamchi statistika ma'lumotlarining maxfiyligini va axborot xavfsizligini ta'minlash;
- sifatga moslashuvchanlikni ta'minlash;
- zarur bo'lgan resurslarni ta'minlash.

3) statistik jarayonlarni boshqarish:

- ilmiy asoslangan metodologiyaning qo'llanilishini ta'minlash;
- iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash;
- statistik jarayonlarning amalga oshirilishini ta'minlash;
- respondentlarga tushadigan yuklamalarni tartibga solish.

4) statistika ma'lumotlarini boshqarish:

- dolzarblikni ta'minlash;
- aniqlik va ishonchlilikni ta'minlash;
- puxtalik va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash;
- hammaboplik va tushunarliklikni ta'minlash;
- o'zaro muvofiqlik va qiyosiylikni ta'minlash;
- metama'lumotlarni boshqarish.

8. Statistika agentligi rahbariyati Sifat sohasidagi siyosatning amalga oshirilishini, sifatni boshqarish tizimini doimiy yaxshilab borilishini va mavjud resurslardan samarali foydalanilishini ta'minlaydi.